<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ BUZILISHLARIDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK KORREKSIYA USULLARI HAMDA MEXANIZMLARI

Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi

Andijon davlat pedagogika instituti logopediya yo'nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: To'rahanova Barno

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining pedagogik-psixologik jihatlarini, ularni aniqlash, oldini olish va korreksiya qilishning samarali usullari hamda mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda nutq buzilishlarining kelib chiqish omillari, ularning bolalar psixik rivojlanishiga ta'siri va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyatning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, o'yin texnologiyalari, individual va guruh yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi. Maqolada pedagog, psixolog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi nutq buzilishlarini bartaraf etishdagi muhim mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish va ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, nutq buzilishlari, pedagogik-psixologik korreksiya, logopedik ishlar, psixologik mexanizmlar, o'yin texnologiyalari, individual yondashuv, nutq rivoji.

Abstract: This article discusses the pedagogical and psychological aspects of speech disorders in preschool children, as well as effective methods and mechanisms for their identification, prevention, and correction. The study analyzes the factors causing speech disorders, their impact on children's mental development, and the significance of correctional and pedagogical activities conducted in preschool educational institutions. It also substantiates the effectiveness of speech therapy, psychological support, game-based technologies, and individual and group approaches. The article considers cooperation among teachers, psychologists, and parents as an important mechanism for addressing speech disorders. The study results contribute to the development of preschool children's speech and the improvement of their social adaptation.

Key words: preschool age, speech disorders, pedagogical and psychological correction, speech therapy, psychological mechanisms, game technologies, individual approach, speech development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты нарушений речи у детей дошкольного возраста, а также эффективные методы и механизмы их выявления, профилактики и коррекции. Анализируются факторы, вызывающие нарушения речи, их влияние на психическое развитие детей, а также значение коррекционно-педагогических мероприятий, проводимых в дошкольных образовательных учреждениях. Обосновывается эффективность логопедической терапии, психологической поддержки, игровых технологий, индивидуального и группового подходов. В статье сотрудничество педагогов, психологов и родителей рассматривается как важный механизм устранения нарушений речи. Результаты исследования способствуют развитию речи детей дошкольного возраста и улучшению их социальной адаптации.

Ключевые слова: дошкольный возраст, нарушения речи, педагогическая и психологическая коррекция, логопедическая терапия, психологические механизмы, игровые технологии, индивидуальный подход, развитие речи.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish hamda unda tarbiyalanayotgan bolalarning har tomonlama sog'lom va barkamol rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilish jarayonlari, emosional-irodaviy soha va nutq faoliyatining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda nutqning to'g'ri shakllanishi bolaning atrof-muhit bilan muloqoti, tafakkuri, ijtimoiylashuvi hamda keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda



maktabgacha yoshdagi bolalar orasida turli xil nutq buzilishlari tobora ko'proq uchramoqda. Tovush talaffuzidagi nuqsonlar, lug'at boyligining kamligi, grammatik tuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, bog'langan nutqning rivojlanmaganligi, duduqlanish, dizartriya va alaliya kabi holatlar bolalarning muloqot jarayonini qiyinlashtiradi. Bunday nutq buzilishlari nafaqat nutq faoliyatiga, balki bolaning psixik rivojlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga, emotsional holatiga hamda tengdoshlari bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi ^[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini pedagogik va psixologik korreksiya usullari orqali bartaraf etish imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayoni eksperimental tadqiqot dizayni asosida tashkil etildi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashtirildi hamda nutq rivojlanishidagi o'zgarishlarni obyektiv baholash maqsadida diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari izchil amalga oshirildi.

Tadqiqotda 5–6 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirok etib, ular nutq rivojlanishidagi buzilishlar xarakteriga ko'ra tanlab olindi. Ishtirokchilar orasida fonetik-fonematik nutq buzilishlari, leksik-grammatik tizimdagi kamchiliklar hamda umumiy nutq rivojlanishining yetishmovchiligi kuzatilgan bolalar mavjud bo'ldi.

Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga – tajriba guruhi va nazorat guruhi – ajratildi: tajriba guruhida maxsus ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik korreksiya dasturi amaliyotga tatbiq etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulotlar olib borildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, testlash, logopedik diagnostika hamda psixologik baholash metodlaridan kompleks foydalanildi.

Pedagogik kuzatish orqali bolalarning nutq faolligi, tovush talaffuzi, so'z boyligi va kommunikativ xulq-atvoridagi o'zgarishlar muntazam qayd etib borildi. Suhbat va testlash usullari bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini, nutqni tushunish va ifodalash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Logopedik diagnostika metodlari yordamida fonematik eshitish, artikulyatsion apparat faoliyati hamda grammatik tuzilmaning shakllanish darajasi baholandi. Psixologik metodlar orqali esa bolalarning emotsional holati, motivatsiyasi, diqqat va xotira jarayonlarining nutq bilan bog'liq jihatlari tahlil qilindi. Shakllantiruvchi bosqichda bolalar bilan tizimli ravishda integrativ pedagogik-psixologik korreksiya mashg'ulotlari olib borildi; mashg'ulotlar jarayonida artikulyatsion va nafas mashqlari, fonematik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, leksik va grammatik tuzilmani boyituvchi o'yinlar hamda emotsional barqarorlik va ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi psixologik mashqlar qo'llanildi. Mashg'ulotlar individual va kichik guruh shaklida tashkil etilib, bolalarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olindi hamda nutqiy faoliyatni rag'batlantiruvchi interaktiv metodlardan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazorat bosqichida dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari o'zaro solishtirildi hamda korreksion ishlar samaradorligi aniqlab olindi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik va taqqoslovchi usullardan foydalanilib, nutq rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar sifat va miqdoriy jihatdan baholandi. Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat'iy amal qilinib, bolalarning psixologik xavfsizligi, sog'lig'i va shaxsiy xususiyatlari himoya qilindi. Tadqiqotni o'tkazish ota-onalarning yozma roziligi asosida amalga oshirilib, barcha mashg'ulotlar bolalarning yoshiga mos hamda majburiyatsiz tarzda tashkil etildi. Nutq buzilishlarining kelib chiqish sabablari xilma-xil bo'lib, ular biologik, ijtimoiy va psixologik omillar bilan bog'liqdir. Markaziy nerv tizimidagi yetilish nuqsonlari, prenatal va perinatal omillar, oiladagi nutq muhiti, tarbiya uslublari, bolaga yetarli e'tibor va muloqotning kamligi nutq rivojiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etishda faqat logopedik yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik va psixologik korreksiya usullarini kompleks tarzda qo'llash zarurati yuzaga keladi.

Pedagogik-psixologik korreksiya bolaning individual xususiyatlarini, yosh imkoniyatlarini va psixik rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi vosita sifatida namoyon bo'lib, u orqali bolalarning nutqiy faolligi oshiriladi, emotsional holati barqarorlashtiriladi va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlantiriladi. Psixologik mexanizmlar – motivatsiya, taqlid, emotsional qo'llab-quvvatlash va ijobiy rag'batlantirish – nutq korreksiyasining samaradorligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi ^[2]. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda ularning mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish, amaliyotga joriy etish va mutaxassislar hamda ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada aynan mazkur muammolarni yoritish, zamonaviy yondashuvlar asosida samarali korreksiya usullarini tahlil qilish maqsad qilib olingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u pedagogik va psixologik yondashuvlarning uzviy uyg'unligini talab etadi. Ushbu jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, individual rivojlanish darajasi, psixik holati hamda nutq buzilishining turi va darajasi asosiy mezon sifatida e'tiborga olinadi.



Korreksion ishlar tizimli, izchil va uzluksiz tashkil etilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin ^[3]. Amaliyotda maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining asosiy turlari sifatida tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish (dislaliya), nutq apparati mushaklarining yetarlicha harakatchan emasligi bilan bog'liq buzilishlar (dizartriya), nutqning umumiy rivojlanmaganligi, alaliya hamda duduqlanish holatlari qayd etiladi. Ushbu buzilishlar ko'pincha bolaning lug'at zahirasining kamligi, grammatik shakllardan noto'g'ri foydalanish va bog'langan nutqning sust rivojlanishi bilan kechadi, natijada bola o'z fikrini erkin ifoda eta olmaydi va muloqot jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Pedagogik korreksiya usullari nutq buzilishlarini bartaraf etishda muhim o'rin tutib, ular asosan nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bunda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, fonematik eshituvni rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmani shakllantirish asosiy vazifalar hisoblanadi. Pedagogik yondashuvda ko'rgazmali vositalar, didaktik o'yinlar, rasmlar, kartochkalar hamda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bolalarda qiziqish va faollikni oshiradi ^[4].

O'yin texnologiyalari pedagogik korreksiyaning yetakchi shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki maktabgacha yoshda o'yin bolaning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali nutqiy faollik tabiiy va majburiyatsiz tarzda rivojlanadi. Rolli, syujetli, harakatli va nutqiy o'yinlar bolalarda so'z boyligini oshirish, gap tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi; o'yin jarayonida bolaning o'zini erkin his qilishi nutqdagi psixologik to'siqlarni kamaytiradi ^[5].

Psixologik korreksiya usullari esa bolaning emotsional-irodaviy holatini barqarorlashtirish, nutq buzilishiga nisbatan salbiy munosabatni bartaraf etish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratiladi. Ko'plab nutq buzilishlari, xususan duduqlanish, bolaning ichki xavotiri, qo'rquvi va emotsional zo'riqishi bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli, psixologik qo'llab-quvvatlash, relaksatsion mashqlar, art-terapiya, musiqaterapiya va nafas mashqlari korreksion ishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogik-psixologik korreksiya jarayonida individual va differensial yondashuv mexanizmlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir bolaning nutq buzilishi darajasi va psixik rivojlanish xususiyatlari turlicha ekanini inobatga olgan holda korreksion ishlar individual dastur asosida tashkil etilishi lozim. Guruhiy mashg'ulotlar esa bolalarda ijtimoiy muloqotni rivojlantirish, o'zaro nutqiy aloqalarni mustahkamlash va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi ^[6].

Korreksiya mexanizmlaridan yana biri mutaxassislar va ota-onalar hamkorligi bo'lib, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish, uy sharoitida bajariladigan mashqlar va tavsiyalar bilan ta'minlash korreksion jarayonning uzluksizligini kafolatlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi, logoped va psixologning hamkorlikdagi faoliyati esa bolaning nutqiy va psixik rivojlanishini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi ^[7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki (diagnostik) bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanish darajasi kompleks tarzda baholandi. Boshlang'ich diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning aksariyatida fonematik eshitishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tovush talaffuzida xatolar, so'z boyligining cheklanganligi hamda grammatik tuzilmani qo'llashdagi qiyinchiliklar kuzatildi. Shuningdek, ayrim bolalarda nutqiy faoliyatning pastligi, muloqotga kirishishda ishonchsizlik va emotsional beqarorlik holatlari qayd etildi. Dastlabki natijalarga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida nutq rivojlanish darajasi jihatidan sezilarli farq aniqlanmadi, bu esa shakllantiruvchi tajribani o'tkazish uchun teng sharoit mavjudligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi bosqich yakunida o'tkazilgan yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhidagi bolalarda nutq rivojlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganini ko'rsatdi. Xususan, fonematik eshitish darajasining yaxshilanishi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish holatlarining ko'payishi hamda artikulyatsion apparat harakatchanligining oshishi kuzatildi.

Tajriba guruhi bolalarida so'z boyligi kengayib, gap tuzish jarayonida grammatik xatolar sezilarli darajada kamaydi, nutqning bog'langanligi va mantiqiy izchilligi oshdi hamda bolalarning muloqotga kirishish faolligi ortdi. Psixologik baholash natijalari ham ijobiy dinamikani namoyon etdi, ya'ni tajriba guruhidagi bolalarda emotsional holatning barqarorlashuvi, nutqiy faoliyatga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning oshishi hamda muloqot jarayonida o'zini erkin tutish ko'rsatkichlari yaxshilandi. Korreksion mashg'ulotlar jarayonida interaktiv va o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning diqqat va xotira jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilgani aniqlandi. Nazorat guruhida ham ayrim ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan bo'lsa-da, ular asosan asta-sekinlik bilan va kamroq darajada namoyon bo'ldi hamda an'anaviy mashg'ulotlar fonida nutq rivojlanishidagi o'zgarishlar tizimli va barqaror xarakter kasb etmadi. Tajriba va nazorat guruhlarida natijalarini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, integrativ pedagogik-psixologik korreksiya dasturi qo'llanilgan tajriba guruhida nutq buzilishlarini bartaraf etish samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini



korreksiya qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi va olingan natijalar ishlab chiqilgan korreksiya dastur nutq rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlash hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarini bartaraf etishda pedagogik-psixologik korreksiya usullari va mexanizmlarini uyg'un holda qo'llash yuqori samaradorlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolaning nutqini rivojlantirish bilan birga, uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlari nafaqat ularning muloqot jarayoniga, balki umumiy psixik rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxsiy faolligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur muammoni hal etishda faqat logopedik yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik va psixologik korreksiya usullarini kompleks va uyg'un holda qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik-psixologik korreksiya bolaning yosh xususiyatlari, emotsional holati hamda individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tizimli va izchil tarzda amalga oshirilgandagina kutilgan natijaga olib keladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'yin texnologiyalari, art-terapiya, musiqaterapiya, nafas mashqlari, relaksatsiya mashg'ulotlari hamda kommunikativ o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni oshirish, tovush talaffuzini yaxshilash va psixologik to'siqlarni bartaraf etishda eng samarali vositalardan hisoblanadi. Shuningdek, mutaxassislar – logoped, psixolog, tarbiyachi hamda ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik korreksiya jarayon muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini erta aniqlash va ularni samarali bartaraf etish maqsadida ta'lim muassasalarida logopedik va psixologik diagnostika ishlarini muntazam va tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi. Nutq buzilishlariga ega bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogik va psixologik korreksiya usullarini integratsiyalashgan holda qo'llash, xususan, logopedik mashqlarni emotsional-motivatsion qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Korreksiya mashg'ulotlari individual va kichik guruh shaklida tashkil etish, bolalarning yosh, psixologik hamda individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalari, interaktiv va vizual metodlardan keng foydalanish bolalarning nutqiy faolligi va darslarga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Korreksiya ishlar jarayoniga ota-onalarni faol jalb etish, ularga uy sharoitida bajariladigan mashqlar bo'yicha metodik tavsiyalar berish korreksiya samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog va logopedlar uchun nutq buzilishlarini korreksiya qilishga oid malaka oshirish treninglarini tashkil etish hamda erishilgan natijalarni baholash maqsadida monitoring va qayta diagnostika tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarini bartaraf etish jarayoni ko'p bosqichli, kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bolaning nutqini rivojlantirish orqali uning fikrlash qobiliyati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasi ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bois pedagogik-psixologik korreksiya usullari va mexanizmlarini amaliyotga chuqur tatbiq etish zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muminova L.R. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
2. Rahmonova M.Sh. Logopediya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Abduqodirov A.A., Jo'rayev R.X. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Sharq, 2015.
4. Nurmonov A.N. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.
5. Vygotskiy L.S. Nutq va tafakkur. – Moskva: Pedagogika, 1982.
6. Leontyev A.A. Nutq faoliyati asoslari. – Moskva: Nauka, 1974.
7. Luriya A.R. Oliy psixik funksiyalar va ularning buzilishlari. – Moskva: MGU, 1973.
8. Volkova L.S. Logopediya. – Moskva: Vados, 2010.
9. Filicheva T.B., Chirkina G.V. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini korreksiya qilish. – Moskva: Prosveshcheniye, 2008.
10. Koroleva I.V. Bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik asoslari. – Sankt-Peterburg: Rech, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.